

ENG QADIMGI ODAMLAR



Ushbu darsdan so'ng siz:

- yurtimizdagi qadimgi odamlar yashagan yerni va ularning atalishlarini aytib bera olasiz;
- olimlar uzoq o'tmishni qanday davrlarga bo'lib o'rganishlarini tushunib olasiz;
- insonlar turmushini butunlay o'zgartirgan eng birinchi kashfiyotlar bilan tanishasiz.



Yer juda qadim zamonlarda



Bilib qo'ygan yaxshi

Barcha odamlar, xalqlar uchun aziz sanalmish Yer chamasi to'rt yarim milliard yil burun paydo bo'lgan. Bu juda uzoq muddat sanaladi. O'sha davrda Yerda turmush yo'q edi. Vaqt o'tib, unda jonli tabiat – yashash uchun sharoit paydo bo'ldi, suv o'tlari (1 milliard 200 million yil oldin), quruqlikdagi o'simliklar (450 million yil ilgari) va hayvonlar (600 million yil burun) tarqala boshladi. Olimlar Afrikaning sharqiy qismi – hozirgi Tanzaniya o'lkasida bundan 1,5–2,4 million yil ilgari **“Uquvli odam” (Homo habilis)** yashaganini aniqlaganlar.

Turon – qadimgi odamlar yurti

Farg'ona vodiysidagi **Selungur g'orida** kamida bir million yil oldin yashagan **“tik yur-rar odam”**ga oid suyaklar topilgan. Turonda inson yashab o'tgan eng keksa manzillar yana bor. Amudaryoning yuqori oqimidagi **Ko'lbuloq**, Toshkent viloyatidagi **Obirahmat**, Samarqand viloyatidagi **Omon qo'ton** qo'nalg'alari, Surxondaryo viloyatidagi **Teshik-tosh** unqurida aniqlangan topilmalar 800 000 – 40 000 yil oldingi davrga tegishlidir.



Eslab qoling

Turon – qadimgi davrdan 1924-yilgacha Markaziy Osiyoning nomlanishi. Ajdodlarimiz Turon atamasi bilan bir qatorda xuddi shu ma'noni bildiruvchi **Turkiston** atamasini ham birdek qo'llab kelganlar.



Ish va urush qurollari

Turli xalqlar singari o'zbek xalqi ham barcha tarixiy davrlarni bosib o'tgan. Ushbu davrlarning nomlari ham ish va urush qurollarini yasashda qo'llangan ashyolar bilan bog'liq.

Kun maqoli

Ish quroling soz bo'lsa,
Mashaqqating oz bo'lar.

Demak, odamlarning ilk quroli tosh bo'lgan va asosan toshdan yasalgan. Ular oldiniga o'tkir tosh sinig'idan yog'och, suyakka ishlov berish, ovlangan hayvon terisini shilishda foydalangan bo'lsalar, keyinchalik o'zlari toshlarni sindirib, uning bo'laklaridan o'tkir qurollar yasashga o'tganlar. Inson **juzinni** (bronza) kashf etgach esa, ish va urush qurollarini ushbu ashyodan tayyorlashga o'tgan. Qadimgi ajdodlarimiz keyinchalik temirni ixtiro qilganlar va undan foydalana boshlaganlar.

Olimlar ish va ov qurollari ashyolarining o'zgarib borishiga qarab quyidagi uchta tarixiy chog' (bosqich)ni belgilaganlar:

Davrlarning nomi	Davrlarning vaqt oralig'i	Asosiy ashyosi
Tosh davri	2,6 milliondan 6000 yil oldingacha	Tosh
Juzin (bronza) davri	5000 yildan 3000 yil oldingacha	Juzin (bronza)
Temir davri	Taxminan 3000 yil oldin boshlangan	Temir



Turmushni o'zgartirgan kashfiyotlar

Taraqqiyotning ilk burilish nuqtalari

Insoniyat tarixini butunlay o'zgartirib yuborgan va uni bugungi yuksak darajaga olib kelgan bir nechta ulkan burilish nuqtalari bor. Ulardan eng birinchisi – **olovning kashf etilishi**dir. Odamlar olovga ilk marta tabiat hodisalari tufayli yuz bergan yong'inlar oqibatida duch kelganlar. Chaqmoq urishi, o'rmon, butazorlarga o't ketishi tufayli vujudga kelgan yong'inlar "foydasi"ni o'rganganlar. Ular olovda pishgan go'shtning mazali bo'lishi, olov qorong'ida yorug'lik taratishi, undan hatto yirtqichlar ham qo'rqishini anglab yetganlar. Odamlar 1,5 million yilcha oldin olovni saqlashni ham o'rganib olganlar.

Odamlar 400 000 yil burun olovni sun'iy tarzda olishni o'rganganliklari yana bir o'ta muhim tarixiy voqea bo'lgan. Bu ish qanday qilinganini bilasizmi?



Eng qadimgi yo'sin bu toshni toshga urib, undan chiqqan uchqun orqali qovjiragan xas-xashakni yondirish sanalgan. Yo bo'lmasa, tayoqni yog'ochga qattiq va tinimsiz ishqalash orqali ham olov hosil qilingan.



6.4-rasm. Ibtidoiy odamlarning sun'iy yo'l bilan olov hosil qilishlari.

Tarixiy sabab va oqibatlar

Olov insoniyatning olam uzra tarqalishida ham muhim o'rin tutgan. Uning yordamida isinish imkoni tug'ilgach, endi issiq va iliq o'lkalardan nisbatan salqin va sovuq yurtlarga ham ko'chib o'tish imkoni paydo bo'lgan.



O'zbekning ulug'lari



Mahmud Chag'iniy (1221-yili vafot etgan)

Mahmud Chag'iniy 12-yuzyillikning ikkinchi yarmida Ko'hna Urganch shahri (hozirgi Turkmaniston hududi) yaqinidagi Chag'min qishlog'ida tug'ilgan. "Bo'linmas zarracha", "unsuriy zarracha", ya'ni atom haqida ilmiy izlanishlari bilan mashhurdir. 1221-yili Chingizxon qo'shinlarining Ko'hna Urganchga bosqini paytida Vatan himoyasi uchun otlangan va qahramonlarcha halok bo'lgan. Qabri qayerdaligi ma'lum emas.



Yashash uchun kurash

Qadimgi odamlar juda uddaburon bo'lganlar. Ular oddiy tosh, suyak va hayvon shoxlaridan sodda qurollar yasaganlar. Ilk ish qurollari sifatida chopqi, pichoq, qirg'ich, bigiz, igna, shuningdek, nayza va o'q uchlarini tilga olish mumkin. Ular inson turmushini sifat jihatdan yaxshilashga katta turtki bergan.

Yoy va o'qning ixtiro qilinishi insonlar turmushini butunlay o'zgartirib yubordi. Chunki bundan buyon xavfli hayvonlarga yaqinlashmay, uzoqdan zarba berish va tez harakatlanuvchi o'ljalarni ovlash imkoni tug'ilgan edi. Bu yangilik ham inson hayotini saqlab qolish, ham ov unumini keskin oshirishga xizmat qilgandi.



Bilib qo'ygan yaxshi

Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoyalariga 14 000 yil burundan boshlab chizilgan suratlarda ovchilar yoylarni tarang tortib turganlari va uchib borayotgan o'qlar aks ettirilgan. Demak, o'q-yoy Turonda kamida 10 000 yil oldin ixtiro qilingan.



Savol va topshiriqlar

1. Vatanimiz hududidagi qanday ilk manzilgohlarni bilasiz?
2. Kishilik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari qanday omillarga ko'ra davrlarga ajratilgan?
3. Olovning kashf etilishi odamlar turmushida qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
4. Qadimgi odamlar nima maqsadda yoy va o'qni o'ylab topganlar va bu ularning hayotini qanday o'zgartirgan?





Tabiatdan madaniyatga

Insoniyatning Yer yuzida yashab qolishi sababi nimada?

Bugungi hisob-kitoblarga ko'ra, barcha kasblar va mutaxassisliklar soni 50 000 tagacha yetar ekan. Biroq uzoq o'tmishda ular atigi bir nechta bo'lgan, xolos. Insonning ilk mashg'uloti terimchilik bo'lgan. Qadimgi ajdodlarimiz daraxtlar va butalarda pishgan turli mevalar, o'simliklar ildizlarini terib yeganlar.

Shuningdek, ular yovvoyi hayvonlarni ovlash, baliq tutish bilan ham shug'ullanganlar. Aynan **terimchilik va ovchilik** mahsulotlari odamlarni uzoq muddat ochlik va quvvatsizlikdan asragan.



Oddiy buyumlardan murakkab asboblarga

Oldiniga ajdodlarimiz o'zlariga eng yaqin bo'lgan tabiiy ashyolar – yog'och, tosh, hayvon suyaklari va terisidan foydalanganlar. Bir toshni ikkinchisiga urib, uning chetlarini sindirish va o'tkirlashni o'rganganlar. Shunday qilib, ularning og'ir turmushini yengillashtirgan ilk ish va ov qurollari paydo bo'lgan. Ajdodlarimiz bunday qurollardan unumli foydalanishni o'rganganlar, jumladan:

1. Nayza va o'q-yoy yordamida hayvonlarni uzoqdan turib ovlaganlar.
2. O'tkir toshlar bilan go'shtni kesib maydalaganlar.
3. Hayvon terilaridan o'zlariga issiq kiyimlar tikkanlar.
4. Eng muhimi, yirtqich hayvonlardan o'zlarini himoya qilganlar.



Bilib qo'ygan yaxshi

Nima uchun olimlar insoniyat tarixining ilk bosqichini "Tosh davri" deb ataganlar? Chunki o'sha davrda qo'llangan ish va urush qurollarining aksariyati toshdan yasalgan edi. Tosh buyumlar tuproq ostida chirimaydi va ming yillar davomida saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli ular qadimgi ajdodlarimiz turmushini o'rganishda muhim manba sanaladi.





Eslab qoling

Terimchilik – qadimgi odamlarning tabiatdagi turli mevalar va o'simlik ildizlarini yig'ish faoliyati.

Ovchilik – qadimgi odamlarning hayvonlarni ovlash va baliq tutish faoliyati.

10 000 – 11 000 yillar burun

Odamlar **misga ishlov berishni boshlaganlar**. Biroq bu paytda ushbu jarayon ochiq holda topilgan misni urish, burash, cho'zish, o'yishdan iborat bo'lgan.

Taxminan 7000 yil oldin

Insoniyat tarixida yangi yuksalish davri boshlangan – yuqori darajali olovda ishlaydigan o'choqda **misni eritish va ishlov berish tajribasi paydo bo'lgan**.

5000 yil burun

Misga qalay qo'shib, misdan ancha mustahkam bo'lgan yangi metall – **juzin (bronza) hosil qilingan**.

3000 yil ilgari

Kishilik turmushida o'ta muhim voqea – **temirni qayta ishlash ilmi paydo bo'lgan**.



Tarixiy o'zgarish va davomiylik

Juda uzoq vaqt davomida ish va urush qurollari asosan toshdan yasalgan. Tosh qurollar tez sinuvchan bo'lgani sababli ularni qayta tiklashning deyarli imkoni bo'lmagan. Metall qurollar esa qo'llashga qulay va pishiq bo'lgan. Eng muhimi, ularni qayta eritib, yangi va turlicha qurollar hamda buyumlar yasash mumkin edi. Ish qurollarining sayqal topib borishi, o'z o'rnida, mehnat unumini oshirgan va odamlarning turmush tarzini yaxshilab borgan.



O'zbekning ulug'lari



Munavvarqori Abdurashidxonov (1878 – 1931)

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkent shahrida tug'ilgan.

Jadidchilik milliy harakatining yirik va yorqin vakili, o'zbek milliy matbuoti va yangicha maktablar asoschisidir. Yoshlarning chet eldagi ilg'or oliy o'quv yurtlarida o'qishlarini moddiy qo'llash uchun "Ko'mak" uyushmasini tuzgan.

1931-yili sovet hokimiyati tomonidan otib tashlangan. Qabri Rossiya poytaxti Moskvadagi Vagankovo qabristonida.



Savol va topshiriqlar

1. Insoniyat tarixi qaysi uchta katta davrga bo'linadi?
2. Odamlarning ish qurollari toshdan temirgacha qanday bosqichlarda rivojlangan?
3. Tosh va metallardan yasalgan qurollar o'rtasida qanday farqlar bor? Qaysi biri qulayroq bo'lgan?
4. Qadimgi odamlar olovni qanday kashf etganlar?
5. Metallardan foydalanish qadimgi odamlar turmushida nima uchun muhim yangilik bo'lgan?

